

## Qadimiylar sirlari

Qashqadaryo viloyati Shahrисабз shahrining Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi tomonidan Farg'onan vodiysi qadim va o'rta asrlarga doir moddiy madaniyat namunalari davriy ketma-ketlikda tayyorlangan ko'chma ko'rgazmasi tashkil etildi.

Unda Andijon, Buxoro, Surxandaryo, Qarshi muzeylari vakillari, Qashqadaryo viloyati madaniyat boshqarmasi boshlig'i va faxriylari, Qirg'iziston Respublikasi Madaniyat vazirligi vakillaridan iborat delegatsiya hamda mahalliy qadimiyat muhlislari ishtirok etdi.



Ko'rgazmada qadim Farg'onanining moddiy madaniyatiga dahldor bo'lgan osori atiqalar qatorida kulolchilik buyumlari, shu bilan birga qadimiy shaharlar madaniyatidan guvohlik beruvchi zargarlik buyumlari ham namoyish etildi.